

**NAVOIY VILOYATIDA
UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI
2020/2021- o'quv yili boshiga**



2020/2021- o'quv yili bo-
shiga Navoiy viloyatida jami
umumta'lim muassasalari
soni 368 tani tashkil etib,
ulardan 249 tasi (67,7%)
qishloq joylarda, 119 tasi
(32,3%) shaharlarda
joylashgan. Navoiy viloyati
umumta'lim muassasalarida
182,7 ming nafar o'quvchilar
ta'lim olayotgan bo'lib,
ulardan 43,3 % qishloq
joylardagi umumta'lim
muassasalarida, 56,7 %
shahar joylarda ta'lim
oladigan o'quvchilar-
ni tashkil etadi.



Umumta'lim muassasalarida sinf guruhlari bo'yicha o'quvchilar soni

(2020/2021- o'quv yili boshiga, ming kishi)



10-11 sinflar

26,2

5-9 sinflar

84,1

1-4 sinflar

71,7

Umumta'lim muassasalari bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasadir.


Umumiy o'rta ta'lim, boshlan-g'ich ta'lim (I - IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar) hamda o'rta ta'lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida faoliyat yuritadi.



**Hududlar kesimida umumiy o'rta ta'lim
muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari**
(2020/2021- o'quv yili boshiga)


	Muassasalar soni, birlik	O'quvchilar soni, kishi	O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishi
Navoiy viloyati	368	182 708	20 785
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	23	34 133	2 854
Zarafshon	13	16 303	1 701
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	37	7 238	1 099
Karmana	33	23 040	2 274
Qiziltepa	44	23 728	2 968
Navbahor	37	18 294	2 062
Nurota	57	16 805	2 066
Tomdi	17	1 865	320
Uchquduq	19	7 801	838
Xatirchi	88	33 501	4 603

Umumta'lim muassasalari soni, birlik
(o'quv yili boshiga)




Navoiy viloyatida 2020/2021- o'quv yili boshida jami umumta'lim muassasalari soni 368 tani tashkil etdi va 2016/2017- yilning mos davriga nisbatan 14 taga ko'payib, 4,0 % ga oshgan.

Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni, ming kishi
(o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 182,7 ming nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2016/2017- o'quv yili boshida 42,5 ming nafarga (30,3 %), 2017/2018- o'quv yili boshida 27,9 ming nafarga (18,0 %), 2018/2019- o'quv yili boshida 11,5 ming nafarga (6,7 %), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 ming nafarga (1,8 %) oshganligi kuzatildi.


Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar soni, ming kishi
(o'quv yili boshiga)



Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar bu- o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslardir. 2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 20,8 ming nafar o'qituvchi (o'rindoshlarsiz) faoliyat olib bormoqda va 2016/2017- o'quv yili boshida 5,1 ming nafarga (32,5% ga), oshganligi kuzatildi.



Umumta'lim muassasalarini turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlik (2020/2021- o'quv yili boshiga)



O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar hisoblanadi. 2020/2021-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining 365 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablari, 3 tasi boshqa muassasalar tarkibiga kiradi, boshlang'ich maktablar viloyatda mavjud emas. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 181,4 ming nafar va boshqa muassasalarda 1,1 ming nafar o'quvchilar tahsil olmoqda.



Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, ming kishi ¹⁾


 O'quvchilar soni jami	shundan :											
	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf	
Navoiy viloyati	181,9	18,8	17,6	17,4	17,8	17,7	17,2	17,8	16,2	15,2	13,1	13,1
<i>shaharlar:</i>												
Navoiy	33,9	3,3	3,4	3,2	3,4	3,2	3,2	3,2	3,0	2,8	2,7	2,5
Zarafshon	16,3	1,8	1,7	1,6	1,6	1,7	1,7	1,5	1,4	1,3	1,0	1,0
<i>tumanlar:</i>												
Konimex	7,2	0,8	0,7	0,7	0,8	0,7	0,7	0,6	0,6	0,6	0,4	0,5
Karmana	22,8	2,4	2,3	2,3	2,2	2,2	2,1	2,3	2,0	1,9	1,5	1,6
Qiziltepa	23,4	2,5	2,3	2,2	2,5	2,2	2,2	2,2	2,2	2,0	1,6	1,5
Navbahor	18,3	1,9	1,6	1,7	1,8	1,8	1,7	2,1	1,5	1,5	1,3	1,3
Nurota	16,8	1,6	1,5	1,5	1,5	1,7	1,7	1,8	1,5	1,6	1,3	1,2
Tomdi	1,9	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1
Uchquduq	7,8	0,9	0,9	0,8	0,8	0,8	0,7	0,7	0,7	0,6	0,4	0,5
Xatirchi	33,5	3,4	3,0	3,1	3,0	3,2	3,0	3,2	3,2	2,8	2,8	2,8



2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining birinchi sinfga qabul qilingan o'quvchilari soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahar va Xatirchi tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Tomdi, Konimex va Uchquduq tumanlari kuzatildi.

1) Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilarsiz, boshqa ta'lim muassasalarida tashkil etilgan maktab sinflari o'quvchilarni qo'shgan holda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi²⁾, %da



2020/2021- o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta'lim muassasalarida, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 97 ta (26,6 %), ikki smenada 266 ta (72,9 %), uch smenada 2 ta (0,5 %) ni tashkil etdi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 116,5 ming kishi (64,2 %), ikki smenada 64,3 ming kishi (35,5 %), uch smenada 0,6 ming kishi (0,3 %) tehsil olmoqda.

²⁾Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz va sinflar o'qituvchilarsiz



Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi,%da

92,4

Oliy ma'lumotli


7,6

O'rta maxsus ma'lumotli

2020/2021- o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar soni 20,8 ming nafarni tashkil etib, ulardan 50,8 % qishloq maktablarida, 49,2 % shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. Navoiy viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 9 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.




O'qituvchilarni ta'lim darajasi bo'yicha hududlar bo'yicha taqsimoti³⁾


	Oliy ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, %da	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, %da
Navoiy viloyati	92,4	7,6
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	98,1	1,9
Zarafshon	92,4	7,6
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	93,6	6,4
Karmana	91,6	8,4
Qiziltepa	94,4	5,6
Navbahor	88,6	11,4
Nurota	94,9	5,1
Tomdi	91,2	8,8
Uchquduq	92,6	7,4
Xatirchi	88,3	11,7

3) o'rindoshlarsiz

**Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan
o'quvchilar soni, birlikda
(2020/2021- o'quv yili boshiga)**




Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Tomdi tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 6 nafardan o'quvchi to'g'ri kelgan.






Umumta'lim muassasalarida bitiruvchilar soni, kishi

	9- sinf	11- sinf
Navoiy viloyati	14 648	13 301
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	2 658	2 568
Zarafshon	1 168	973
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	548	441
Karmana	1 853	1 633
Qiziltepa	1 918	1 651
Navbahor	1 537	1 354
Nurota	1 394	1 207
Tomdi	136	94
Uchquduq	472	451
Xatirchi	2 964	2 929

2020- yilda Navoiy viloyatining umumta'lim muassasalarida 11- sinfni 13301 nafar o'quvchi tamomlagan bo'lib, hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xatirchi tumaniga (2929 nafar o'quvchi) to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich esa Tomdi tumaniga (ya'ni 94 nafar o'quvchi) to'g'ri keldi. Umumta'lim muassasalarida 9- sinfni 14648 nafar o'quvchi tamomlagan. Eng yuqori ko'rsatkich Xatirchi tumaniga (2964 nafar o'quvchi) to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich Tomdi tumaniga (136 nafar o'quvchi) to'g'ri keldi.



2020/2021- o'quv yili boshiga mulkchilik shakli bo'yicha umumta'lim muassasalari, ulardagi o'quvchilar va o'qituvchilar soni

	Muassasalar soni, birlik		O'quvchilar soni, kishi		O'qituvchilar soni, kishi	
	davlat	xususiy	davlat	xususiy	davlat	xususiy
Navoiy viloyati	367	1	182448	144	21250	30
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	22	1	33901	144	2951	30
Zarafshon	13	-	16303	-	1706	-
<i>tumanlar:</i>						
Konimex	37	-	7238	-	1100	-
Karmana	33	-	23040	-	2333	-
Qiziltepa	44	-	23700	-	3030	-
Navbahor	37	-	18294	-	2124	-
Nurota	57	-	16805	-	2095	-
Tomdi	17	-	1865	-	321	-
Uchquduq	19	-	7801	-	839	-
Xatirchi	88	-	33501	-	4751	-



Umumta'lim muassasalari va ulardagi o'quvchilarni o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi (2020/2021- o'quv yili boshiga)

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz)


	Muassasalar soni, birlik		O'quvchilar soni, kishi
	ta'lim bitta tilda olib boriladi	aralash	
Jami maktablar	340	25	181965
<i>shu jumladan ta'lim olib boriladigan tillar bilan:</i>			
o'zbek	271	25	157513
qoraqalpoq	3	-	289
tojik	5	-	778
qozoq	58	7	8551
rus	3	20	14834


Umumiy o'rta ta'lim tizimida turli sakkiz tilda bilim olish imkoniyatlari taqdim etiladi: o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, rus, tojik, turkman va ingliz tillarida va bu turli aholi guruhlarini ta'limga ega bo'lish imkoniyati bilan ta'minlaydi. 2020/2021- o'quv yili boshiga o'zbek tilida ta'lim beradigan umumta'lim muassasalari 296 tani tashkil etib, ulardan 271 tasi ta'limni faqat o'zbek tilida olib boradi.




Xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha umumta'lim muassasalarining taqsimlanishi

(jismaniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz)

	Muassasalar soni, birlik	Ularda ta'lim olib boriladigan chet tillar bo'yicha:			
		ingliz	fransuz	nemis	boshqa
Navoiy viloyati	352	324	39	47	1
<i>shaharlar:</i>					
Navoiy	22	22	2	3	1
Zarafshon	13	13	1	1	-
<i>tumanlar:</i>					
Konimex	35	35	-	-	-
Karmana	32	32	2	1	-
Qiziltepa	43	41	4	4	-
Navbahor	37	36	7	3	-
Nurota	55	44	11	7	-
Tomdi	11	10	1	-	-
Uchquduq	16	16	1	1	-
Xatirchi	88	75	10	27	-



Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, %da
(2020/2021- o'quv yili boshiga)



qiz bolalar



o'g'il bolalar

2020/2021- o'quv yili boshiga, Navoiy viloyati bo'yicha jami umumta'lim muassasalarida 181,9 ming nafar o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 93,4 ming nafari (51,4 %) o'g'il bolalar, 88,5 ming nafari (48,6 %) qiz bolalarni tashkil etadi.



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Umumta'lim muassasalari – bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalar.

Umumta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumta'lim muassasasining asosiy maqsadi – o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish, ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash, ularni o'zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

Umumta'lim muassasalari bitiruvchilariga – umumta'lim muassasalarida o'qishni to'liq bitqazgan va o'rta ma'lumot uchun shahodatnoma olgan shaxslar soni kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Navoiy viloyati
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
tel.: (79) 223-54-98